O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING FARG'ONA
VILOYATI BOSHQARMASI

150115 Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy 36-uy, Tel/Faks: (73) 244-68-81, E-mail: fergexp@rambler.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Madmarov Qudrat Yaxiyadjanovich

Sana: 16-04-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

236679 - SONLI

Obyekt nomi: '"Ғаллакор" МФЙ худудидаги ТП-233/250 кВА, ТП-200/63 кВА, ТП-206/100 кВА, ТП-231/250 кВАларни юкини енгиллатиш учун трансформатор урнатиш ва ундан чикувчи тармоғни реконструкция қилиш	
Buyurtmachi:	FARG`ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI DUK
Bosh loyihachi:	"FARG'ONA ELEKTR TARMOQLARI HUDUDIY KORXONASI " aksiyadorlik jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Davlat byudjed mablag'lari
Bosh pudratchi:	"Farg'ona HETK" AJ
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	060348

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentinining 23.09.2024 yildagi PQ-330-sonli qarori.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov tomonidan 30.11.2024 yil VM03/24-199-sonli tasdiqlangan majlis bayoni

1.3. Xalq deputatlari Farg'ona viloyati kengashining 2025-yil 25-mart kungi VII-7-42-11-0-K/25-sonli qarori

1.4. Farg'ona viloyati hokimligi "Kapital qurilish soxasida buyurtmachi xizmati" DUK bosh muhandisi U.Uzakov tomonidan tasdiqlangan,"Farg'ona XETK" texnik direktori E.Ibragimov bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.

1.5. «Farg'ona azimut proyekt» MChJ Farg'ona filiali tomonidan 2025-yilda berilgan obyektning muhandislik-geologiya xulosasi.

1.6. Buyurtmachi hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasida 2025 yil «04» aprelda tuzilgan 30-sonli shartnoma.

1.7. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ "Farg'ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJning 14.02.2025-yil kungi 597-8, 596-8 va 598-8 sonli texnik shartlari.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga koʻra elektron yoʻnalishda taqdim qilingan loyiha smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Umumiy qism va birlamchi ma'lumoti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi "Kambag'allikdan Farovonlik Sari" to'g'risidagi PQ-330-sonli qarori ijrosimi ta'minlash bo'yicha, Furqat tumani, G'allakor MFY xududlarida joylashgan, №206-sonli, №200-sonli, №231-sonli transformator punktini yukini yengillatish maqsadida qo'shimcha transformator punktlarini o'rnatishni nazarda tutadi.

Ishchi loyihani ishlab chiqish uchun quyidagi birlamchi ma'lumotlar asos qilib olingan:

1. Hududning ayni paytdagi rejasi.
2. "Farg'ona HETK" AJ tomonidan berilgan elektr ta'minoti uchun texnik sharti.
3. 10 kVli "Tillo tepa" uzatmasining bir chiziqli chizmasi.

2.Elektr ta'minoti manbalari va elektr ta'minoti to'g'risida.

2.1. 10 kV EUT bo'yicha :

Ob'ektni elektr ta'minoti 110/35/10 kVli "Uzoq" PS dan chiqqan 10 kVli "Tillo tepa" uzatmasining mavjud yaqin tayanchidan CB-110-3,5 rusumli tayanchlarga mahsus travesrlar o'rnatgan holda jami uzunligi L=1692 metr bo'lgan AS-35mm2 simli XEUT qurilishi loyihalashtirilgan.

2.2. 10/0,4 kV transformator punkti bo'yicha :

Yuklama markaziga KTPm turidagi kuchlanishi 10/0,4 kVli quvvati 100 kVA bo'lgan kuch transformatorli 3(uch) dona o'rnatilishi va bu KTPm qurilmalarini USO-1-A temir beton ustuniga o'rnatilishi loyihalashtirilgan.

Transformatorni ichki buzilishlar hamda o'tuvchi qisqa tutashuv toklardan himoyalash PKT turidagi saqlagich va TPni past kuchlanishli 0,4 kVli taqsimlash qurilmasiga o'rnatilgan avtomat o'chirgich yordamida amalga oshiriladi. TPni past kuchlanishli tomoniga o'rnatilgan avtomat o'chirgich TPdan chiqqan 380/220Vli tarmoqlarni qisqa tutashuv toklaridan himoyalash vazifasiga ham xizmat qiladi.

2.1. 0,4 kV EUT bo'yicha :

Loyihaviy TPlardan aholi xonadonlari elektr ta'minoti uchun jami uzunligi L=5183 metr SIP2-3x35+1x50mm2 hamda SIP2-3x50+1x70mm2 simlarda, CB-95-2,0 rusumli temir beton tayanchlarda osib olib borib bajarish loyihalashtirilgan.

3.Kuchlanishni sozlash.

Loyihalashtirilayotgan transformator punktini 110/35/10 kVli "Uzoq" PS dan chiqqan 10 kVli "Tillo tepa" uzatmasiga ulanishi aniqlangan. Markazlashtirilgan holdagi kuchlanishni sozlash iste'molchini zarur me'yorda ishlashini ta'minlaydi. Transformator cho'lg'amidagi simlarning ko'ndalang kesimini e'tiborga olgan holda antsapfning tanlangan holati, iste'molchining kuchlanishini belgilangan me'yor doirasida o'zgarishini ta'minlaydi.

4.Elektr ta'minoti ishonchliligi.

Loyihalanayotgan ob'ekt uchun berilgan texnik shartga asosan joyida o'tkazilgan o'rganishlar va iste'molchining ma'lumotlariga asoslanib, ushbu obyektning elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha III toifaga mansub.

5.O'ta kuchlanishdan himoya.

20kVgacha bo'lgan havo elektr uzatish tarmoqlarida "Elektr qurilmalarning tuzilish qoidalari" (PUE)ga asosan atmosfera bilan bog'liq o'ta kuchlanishlar bo'yicha maxsus himoya nazarda tutilmaydi. Transformator punkti himoyasi "ventelg' razryadnik"lar orqali amalga oshiriladi va bu "ventelg razryadnik"lar TPning komplektiga kiradi.

6. Himoya yerlagichi.

"Elektr qurilmalarning tuzilish qoidalari" (PUE-2011)ga muvofiq 10/0,4 TPning yerlagich "kontur" ishlari vertikal tarzda qoqilgan qoziqlarga va unga gorizontal holatda yotqizilgan,

hamda qoziqlarga payvandlangan neytral metall bog’lamasi ko’rinishida amalga oshiriladi.
Erlagich qurilmasining qarshiligi 4 Om dan yuqori bo’lmasligi shart.
Loyihada elektr qurilmalaridan foydalanish davomida elektr xavfsizligi tadbiri-himoya yerlagichlari ko’zda tutilgan. Buning uchun elektr himoya qobig’ining yemirilishi natijasida elektr toki xavfi ostida qolishi mumkin bo’lgan hamma metall qismlari, texnologik qurilmalarining tana (korpus)lari, tarqatish qurilmalari, metall trubalar transformator punkti atrofida maxsus bajarilgan yerlagichga payvandlash yoki maxsus boltlar yordamida ulanadi.
7. 10 kVli EUTning trassasi va konstruktiv bajarilishi.
10 kVli EUT “Elektr qurilmalarning tuzilish qoidalari” (PUE-2011) talablariga muvofiq tarmoqga tortiladigan simlarni SHF-10 rusumidagi izolyatorlarga ikkilangan (dvoynoe kreplenie) holatda mahkamlanishi shart.
Loyihalanayotgan tarmoqdagi temir-beton tayanchlarni elektr xavfsizligini tahminlash maqsadida “Elektr qurilmalarning tuzilish qoidalari” (PUE-2011) talablariga muvofiq yerlanishi lozim.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1.Elektron taqdim etilgan albomlarda batafsil ko‘rsatilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Davlat ekologiya ekspertizasining 07.04.2025yildagi 01-02/12-2635-sonli xulosasi.
5.2. Nuqson dalolatnomasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **1 462 882 871** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati
47 509 789 so'mga kamaytirilib, **1 415 373 082** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **930 497 972** so'm
Asbob-uskunalar: **247 897 268** so'm
QQS: **141 407 429** so'm
6.1.Ekspertiza jarayonida mutaxasislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.
6.2.Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining texnologik, ichki muhandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izoxlarsiz taqdim etilgan.
6.3.Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq kiritilgan kamchiliklar va tuzatishlar loyihachi tomonidan ko‘rib chiqildi va tuzatildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil ko‘rsatib o‘tilgan).
6.4. Obyektning materiallar va jixozlar qiymati buyrtmachi taqdim etilgan «Fargona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi» AJ bosh diektori tasdiqlagan va Fargona viloyati xokimligi «Kapital qurilish soxasida buyurtmachi xizmati DM raxbari kelishilgan 2025 yil 18 martdagi 01-17-B/46 sonli yigilish bayoniga ilova narxlar bayonnomasiga asoslanib ko‘rib chiqildi.
Buyurtmachi jami xarajati, ish xaqqi 20 351,31 sum/odamsoat (ijtimoyi sug’urta siz) va pudratchining boshqa xarajatlari 14,88% buyurtmachi xatiga asosan qabul qilindi.
Buyurtmachi tomonidan quydagi obyekt jami bo‘lib 1 462 882,871 ming so‘m taqdim etilgan.
Tekshiruv natijasiga ko‘ra quydagi ko‘rsatgichlar tavsiya etiladi:

Qurilish-montaj ishlari:	- 930 497,972 ming so'm
Asbob-uskunalar:	- 247 897,268 ming so'm
Qurilish qiymati QQS siz	- 1 178 395,240 ming so‘m
QQS 12%	- 141 407,429 ming so‘m
Qurilish qiymati QQS bilan	- 1 319 802,669 ming so‘m
Buyurtmachining xarajatlari	- 95 570,413 ming so‘m
Jami obyekt qiymati QQS va	

buyurtmachi xarajatlari bilan - 1 415 373,082 ming so‘m

Iqtisod qilingan mablag‘ - 47 509,789 ming so‘m

Kamayish qurilish mashinalarini va mexanizm va ba'zi materiallar qiymati sozlash xisobiga amalga oshirildi.

6.5. Jixozlar qiymati buyurtmachi kompetensiyasiga kiradi.

6.6. Import qilingan uskunalar va materiallarning narxi ekspertiza tomonidan ko‘rib chiqilmagan.

6.7. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarining haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkilotlari javobgardir.

7. Xulosalar.

7.1. “G‘allakor” MFY xududidagi TP-233/250 kVA, TP-200/63 kVA, TP-206/100 kVA, TP-231/250 kVAlarni yukini yengillatish uchun transformator o’rnatish va undan chiquvchi tarmog‘ni rekonstruksiya qilish, loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o‘tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.3. Ko‘rsatilgan narxni tanlov savdolari uchun qabul qilish to‘g‘risida buyurtmachi qaror qabul qiladi.

7.2. ShNK 1.03.06-2013 42-bandiga asosan amal qilish muddati 2 yil.

Bosh ekspert: Askarova Malika Maxmudovna.

Ishtirokchi ekspertlar: Askarova Malika Maxmudovna, ДЖАЛИЛОВ МУРАДЖАН МАХМУДЖАНОВИЧ